

MARKAZIY OSIYO MINTAQASI XALQLARI MUSIQA MADANIYATNING O'ZBEK MUSIQA MADANIYATINING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Orziboyev Rustam Abdumatalibovich

Farg'ona davlat universiteti

San'atshunoslik fakulteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada O'rta Osiyo hududida ijod qilgan xalqlar madaniyatining XVIII asrgacha bo'lган davri haqida umumiylar ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari o'zbek musiqa madaniyati rivojlanish bosqichlari jarayonida yuzaga kelgan omillarning o'rni borasida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyat, milliy san'at, xalq musiqa madaniyati, his tuyg'u, nomoddiy madaniy meros, tafakkur, Avesto, ijtimoiylashuv.

ABSTRACT

The article provides general information about the culture of the peoples who created in the territory of Central Asia until the 18th century. In addition, opinions were made about the role of factors that occurred during the stages of development of Uzbek music culture.

Key words: music culture, national art, folk music culture, emotion, intangible cultural heritage, thinking, Avesta, socialization

KIRISH

Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri - O'rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qo'shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy va qadimiy merosga ega. O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixiga doir qadimiy yozma manbalar va arxeologlari tomonidan topilgan yodgorliklar buning dalili bo'ladi va shu xalqlarning yuksak madaniyatga ega bo'lganligini tasdiqlaydi.

Qadimgi O'rta Osiyodagi antik madaniyatning ko'pgina musiqa asboblarida (nay, ud, doira) sof mahalliy xususiyatlар mavjudligini ko'rsatish mumkin. Mahalliy an'analarning yunon, hind va boshqa xalq an'analari bilan bog'lanib ketishi sozlarda ham aks etgani o'sha davr madaniyatining o'ziga xos xarakterda bo'lganini nazarda tutadi. Garchi Gretsiyaning O'rta Osiyo musiqa madaniyatiga ta'siri O'rta asrdagi O'rta Osiyolik olimlarning musiqaga oid risolalarida uchratish mumkin bo'lsa ham, vaqtlar o'tishi bilan bu ta'sir yo'qola bordi. Urug' va elatlarning birlashishi va tobora o'sishi natijasida o'l kamiz hududida Baqtriya, So'g'diyona va Xorazmda dastlabki davlatlar paydo bo'lishi, axamoniylarning harbiy-ma'muriy jihatdan birlashuvlari,

Iskandar Zulqarnaynning yurishlari ostida Yunon-baqtriya boshqaruvining vujudga kelishi. Bu davr eramizdan oldingi VII asrdan to milodning IV asrigacha bo'lgan juda katta tarixiy jarayonni o'z ichiga oladi. Qadimiy madaniy yodgorliklarning dalillashicha, bugungi O'zbekiston hududida O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari yaratgan yuksak sivilizatsiya mavjud bo'lgan. Olimlarning ma'lumotlari, tasviriy san'at asarlari, sharq mumtoz adabiyoti va xalq og'zaki ijodiyoti-dostonlarda o'z aksini topgan. Sharqshunoslarning yangi tadqiqotlari va nihoyat O'rtaasrdagi O'rta Osiyo olimlarining musiqiy risolalaridagi izchil ma'lumotlar o'zbek musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini mufassal va to'laligicha tasavvur qilishimizga yordam beradi. Ajdodlarimizdan meros qolgan musiqa sarchashmalari O'rta Osiyo hududida yashagan qardosh xalq (turkman, tojik, qozoq, qaraqalpoq va qirg'iz)lar ijodi bilan uzviy bog'langan.

Bu davrlar X-XI asrgacha qavmiy xalq hududlari uzviy chegaralangunlarigacha, ular bir butunlikni ifoda etgan va keyinchalik shu o'zak mazkur xalqlar milliy musiqa madaniyatlarining shakllanishi uchun umumiylashtirish asos bo'lib xizmat qildi. O'rta Osiyo xalqlari hayotida tarixiy chegaralanish bosqichi taxminan bizning eramizgacha bo'lgan birinchi ming yillikdan boshlanadi. Bular o'troq dehqonlar (sug'diyilar, baqtriyaliklar, xorazmiylar) hamda ko'chmanchi (saklar, massagetlar va boshqa) qabilalar edi. Ular haqidagi ma'lumotlar Avestoda ham uchraydi. Mushtarak poetik va musiqa san'atining boshlanishi o'sha davrlarga borib taqaladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Musiqa shaxsning ijtimoiylashuvi, muayyan hodisa va holatlarini qayta tiklovchi, uning diqqatini jalgan qiluvchi va boshqaruvchi, shuningdek kishilarning mehnat unumdarligini oshiruvchi xususiyatga ega. U so'zsiz va ko'rish imkonini bo'lmagandagi muloqotdir. Musiqa his qilish qobiliyatni tarbiyalovchi vosita bo'lib, undan aqliy va jismoniy kuchlarning o'zaro koordinatsiya va integratsiya qilish vositasi, energiya manbai, haqiqatni yuzaga chiqaruvchi vosita, inson ongingining transformatsiyasi uchun qurol sifatida foydalanish mumkin. Va nihoyat, musiqa kishilarni koinot bilan bog'lovchi kuch hamdir. Bu ro'yxatni davom ettirish yoki har bir bandini kengaytirish mumkin, lekin eng muhimi shunchalar imkoniyatga ega bo'lgan musiqadek ijtimoiy hodisadan inson ongi va tafakkurini yuksak darajalarga olib chiqish uchun foydalanish darkor[1].

Markaziy Osiyo hududida istiqomat qiluvchi turkiy xalqlar musiqasi uzoq tarix va boy an'analarga ega noyob hodisadir. U boshqa musiqa madaniyatları orasida munosib o'rinni egallaydi va ba'zi yutuqlari (qozoq kuy va aytisi; oqinlar san'ati va qirg'iz dostoni "Manas"; o'zbek-tojik maqomlari, o'zbek katta ashula janri;

ozarbayjon mug‘omi va ashuglar san’ati) YUNESKOning “Nomoddiy madaniy meros durdonalari” ro‘yxatiga kiritilgan.

Musiqiy madaniyat dastlab sinkretik (qorishuv) holatda bo’lganligi to’g’risida Avesto kitobi va boshqa qadimgi yozma yodgorliklar, shuningdek, O’rta Osiyo xalqlarinig turmush tarzi, ularning urf-odatlari, to’y-tomoshalarining arxaik elementlari guvohlik berishiga sifisiz jamiyat sharoitida O’rta Osiyo musiqa asboblarining asosiylari, ya’ni urib chalinadigan, puflab chalinadigan va torli sozlar turlari vujudga kelgan.

Turklar istiqomat qilgan hududda (shu jumladan, G‘arbiy Osiyoda) ikki iqtisodiy va madaniy tip rivojlangan: ko‘chmanchi, chorvachilik va o‘troq dehqonchilik. Ko‘chmanchi chorvadorlar (jumladan, qozoqlar, qirg‘izlar, boshqirdlar, no‘g‘aylar, qisman qoraqalpoqlar, shuningdek, Janubiy Sibir turklari va ularning uzoq o‘tmishdoshlari) Yevrosiyoning cho‘l hududlarida yashagan. Buyuk dashtning janubida yashovchi yarim ko‘chmanchi, o‘troq qabilalar (asosan turkmanlar, o‘zbeklar, uyg‘urlar, ozarbayjonlar, turklar) dehqonchilik va shahar qurilishi bilan shug‘ullangan. Ularning har biri o‘ziga xos musiqa madaniyatini yaratgan.

Yevroosiyda dashtlari ko‘chmanchi xalqlarining musiqiy an’analarda ham xuddi shunday xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Ko‘chmanchi turmush tarzi, chorvachilik, yilqichilik, Janubiy Sibir turklarida esa bug‘uchilik asosiy xo‘jalik turlari sifatida bu xalqlarning madaniyati. musiqa va she’riyat san’atida o‘z ifodasini topgan. Ko‘chmanchi turklarning cholg‘u asboblari o’zaro o’xshash. Uning asosini **aerofonlar** (kuray, sibyzgi, choor, kos sirnay, qo‘shnay), **idiofonlar** (qomus, shan-qobyz), shuningdek, **xordofonlar** (qil-qobyz, igil, dombra, tobshur) va **membranofonlar** (shundauly, dauylpaz) tashkil qiladi. Musiqa yaratishda monodik uslub ustunlik qiladi[2].

Turkiy xaqlar musiqasining “milliy o‘ziga xosligini” belgilab beruvchi tovush olami turli tovushlar diapazoni bilan ajralib turadi – past ohangli boy, “yo‘g‘on”, xirillagan ko‘krakli, falset tovushlardan tortib baland va falset tovushlargacha. Registr va tembr ranglanishi tufayli ular turli xil “zichlik” darajalariga ega; yuqori balandlikdagi harakatchanlik bilan birgalikda ular qulqoq tomonidan milliy xarakterli, etnik rang sifatida qabul qilinadi. Ovoz va cholg‘u asboblari tovushining o‘ziga xosligi, eshitish farqlari, bizningcha, o‘ziga xos kod sifatida etnikmadaniy va hatto etnogenetik darajada saqlanib qolgan.

Fundamental toifa sifatida tovush hodisasi turkey xalqlar musiqasining ohangini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Mahalliy musiqachilar orasida nozik eshitishning mavjudligi hali alohida e’tibor ob’ektiga aylanmagan o‘ziga xos ovoz tizimining mavjudligidan dalolat beradi.

Ikki geosiyosiy qarama-qarshilik chorrahasida joylashgan “Sharq-Sharq” va “G‘arbiy-Sharq” turklar musiqasida tovush va ohangning tashkil etilishini o‘rganish ham mintaqqa, ham jahon kontekstida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Turkiy-mo‘g‘ul va turkiy-eron etnomoziq aloqalarini yangicha nuqtai nazaridan tushunish mumkin. XX asrda G‘arbiy Yevropa mumtoz musiqasining O‘rta Osiyo tovush tizimiga ta’sirini o‘rganish dolzarb bo‘lgani yaqqol ko‘rinadi. Ijobiy va salbiy oqibatlarga olib kelgan bu jarayonga yangi tarixiy voqelik nuqtai nazaridan hamda jahon musiqa madaniyatlari o‘zaro ta’sirining boshqa shakllarini hisobga olgan holda xolisona baho berilishi kerak.

1994-yilda Olmaota shahrida o‘tkazilgan “Turkiy xalqlar musiqasi” birinchi xalqaro simpoziumida dunyoning turli davlatlaridan 100 ga yaqin olimlar ishtirok etgani buning dalilidir. Qisman, yuqori rasmiy darajada bo‘lgan bu an’ana Markaziy Osiyo respublikalari madaniyat vazirlarining muntazam qo‘shma yig‘ilishlari tarzida tashkil etildi. Bosh qarorgohi Turkiyada joylashgan Turksoy turkiy davlatlar tashkiloti mana shunday vujudga keldi. Unda musiqa festivallari, turkiy tilli mamlakatlardan kelgan zamonaviy rassomlar, xalq amaliy san’ati ustalarining ko‘rgazmalari o‘tkaziladi.

Turkiy xalqlar musiqasidagi tovush xususiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, umumiy turkiy va mintaqaviy miqyosda bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir qator hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi (tomoq kuylash, Shashmaqom, mug‘om, cholg‘u asboblarining ayrim turlari), ularning rivojlanishidagi o‘rnini aniqlaydi.

Turkiy musiqaning tovush dunyosi zamonaviy jahon musiqa san’ati, ya’ni sonoristika, spektral va mikrotonal (mikrointerval) musiqa kabi yo‘nalishlarda ham qiziqish uyg‘otadi, bunda membr, tovush rangiga alohida e’tibor beriladi.[3:23]

Sharq (eron, arab va turk va boshqalar), jumladan, turkiy musiqa madaniyatlarida ham o‘ziga xos mikrointerval (17, 22, 24 ohang) tizimlari rivojlangan. Biroq turkiy xalqlar musiqasidagi mikrointervalning tabiatи, uning ommalashish sohalari amalda o‘rganilmaganligicha qolmoqda.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarini, xususan, yirik epik janr bo‘lgan dostonlarni sinchiklab o‘qisak, xuddi arxeologik qazishmalardagi asriy madaniyat qatlamlarini tomosha qilayotgandek yoki genetik olim kabi xalqimizning DNK ma'lumotlarini tahlil qilayotgandek holatga tushamiz. Yozma adabiyotga ko‘zi o‘rgangan kitobxon uchun folklor asarlari mutolaasi doim ham serzavq mashg‘ulot tuyulavermasligi mumkin.

Sharq musiqa risolalarida ko‘tarilgan masalalar hozirgi zamon boshlang‘ich musiqa nazariyasiga yaqin turadi. O‘rta asr olimlari ko‘proq musiqa nazariyasi

muammolarini hal etishda maqom musiqasi bilan muqoyasa qilganlar. Bunda ular maqomlardi parda (ton, yarim va chorak tonlar) misolida tahlil etganlar.

Musiqiy asarlarini tashkil etadigan elementlarning eng kichik birligi ayrim musiqa tovushi (ton) bizgacha yetib kelgan nazariy kitoblarda “nag‘ma” iborasi bilan atalgan. O‘zining baland-pastligi bilan muayyan nuqta (parda) chegarasida ma’lum vaqtgacha cho‘zilib turadigan tovush “nag‘ma” deb ataladi.

Musiqaga oid nazariy risolalardan «nag‘ma» musiqaga bog‘liq bo‘lmagan boshqa xil tovushlardan keskin farq qiladi. Ular ma’lum xususiyatlarga ega bo‘ladi. Masalan, insonning qo‘pol ovozi, sozlanmagan cholg‘ularning ovozi nag‘ma sanalmaydi.

Musiqada nag‘ma ikki xil bo‘ladi:

1. Nag‘mai qavliy - ya’ni inson tovushi;
2. Nag‘mai fe’liy - musiqa asboblaridan chiqadigan sun’iy ovoz[4].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarni tahlili natijasida tovush fenomenini va kengroq aytganda, ohangni tashkil etishni o‘rganish istiqbollari musiqiy turkologiya kabi ilmiy bilim sohasini rivojlantirishda ko‘rinadi.

XULOSA

Ushbu izlanishlarimiz natijasi o’laroq tovush modelini aniqlash va uni turkiy xalqlar musiqasiga tadbiq etishdagi ilk tajribalardan biri sifatida Yevropa musiqa madaniyatidan tashqari musiqa madaniyatini o‘rganishda muhim ko‘mak bo‘la olishi hamda sof tembr-tovush idealini aniqlashning turli usullari, boshqa musiqiy amaliyot bilan bog‘liq mos belgilarni izlash chindan ham amaliyotda dolzarb muammo bo‘lib qolayotganini yana bir bor xulosa qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. <https://khorezmscience.uz/uz/site/view?id=11> Isakov Ulugbek Tukhtasinovich Social philosophical genesis of the development of uzbek music culture. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. december, 2021-12/1. ISSN 2181-9750. 93-98 pages
2. [khorezmscience.uz"arxiv/1641750416.pdf](https://khorezmscience.uz/arxiv/1641750416.pdf) Orziboev Rustam Abdumatalibovich /// The role of musical culture in the development of the spiritual worldview of the peoples of the central asian region. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. december, 2021-12/1. ISSN 2181-9750 102 page
3. Absalyamova, N. Kulture tyurkov jit v vekax [Tekst] / N. Absalyamova, E. Djilkibaev // Kazaxstanskaya pravda. - 2002. - № 020 (23669).- 31 yanv. – str 23.

4. <https://znanio.ru/media/xvi-xix-asrlarda-ozbek-musiqasinig-madaniyati-musiqiy-nazariy-meros-2680783> Botirova Xilola., XVI-XIX asrlarda o'zbek musiqasinig madaniyati Musiqiy nazariy meros
5. T.S.Vizgo. Muzikalnie instrumenti Sredney Azii. Moskva. 1980.
6. file:///C:/Users/tursu/Downloads/musika_tarixi.pdf Botir Raximov O'ZBEK MUSIQASI TARIXI., Urganch 2018
7. Orziboev, R. (2023). XITOY VA MARKAZIY OSIYO KO'CHMANCHI QABILALARINING MUSIQIY MADANIYATI RIVOJLANISH JARAYONLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 220-226.
8. Orziboyev, R. (2023). INNAVATSION METODLLAR ORQALI MUSIQA SAN'ATINI O 'QUVCHILARGA O 'RGATISH. *Наука и инновация*, 1(9), 19-22.
9. Rustamjon, O. (2023). ANALYSIS OF MUSICAL WORKS OF CENTRAL ASIAN THINKERS IN MUSIC CULTURE. *Uzbek Scholar Journal*, 16, 196-200.
10. Орзибоев, Р. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ МУСИҚА МАДАНИЯТИГА ДОИР АСАРЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 452-456.
11. Орзибоев, Р. А., & Абдулмадатов, О. (2022). МОДАЛ ВА ТОНАЛ ГАРМОНИЯ ҲАҚИДА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 497-502.
12. Tokhtasinovich, I. U., & Abdumatalibovich, O. R. (2022). The Influence of Music Culture on The Peoples of Central Asia in The Development of Uzbek Music Culture. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 5, 70-73.
13. Nasretdinova, M., Isakov, U. B., & Orziboyev, R. (2022). XALQ IJODIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Scientific progress*, 3(2), 851-856.
14. SultonaliMannopov, A., AbdusalomSoliev, U., & TokhirShokirov, R. (2021). Development of Uzbek National Singing Art during Independence. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 6845-6853.